

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YENGIL SANOATNI RIVOJLANTIRISH

Sh.A.Jo'rayev

*TermDU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Asosiy boyligimiz bo`lmish paxta tolasini qayta ishlash haqida, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta`minlash haqida so`z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *paxta tolasi, eksport, ip gazlamalari, mustaqillik, qayta ishlash, Respublikamiz.*

Ma`lumki, mustaqil O'zbekiston bugungi eksport mahsulotlari ichida paxta tolasi yetakchi O`rinlardan birini saqlab kelyapti.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizning mustaqillikka erishgan birinchi kunlardayoq aytgan, «Biz qudratli to`qimachilik va yengil sanoatni yaratishimiz kerak. Barcha tarqqiy etgan sivilizatsiyalashgan davlatlar singari xomashyo - paxtani emas, tayyor mahsulotni sotishimiz zarur», degan so`zlari Respublikamiz to`qimachilik sanoatining rivojlanish dasturi bo`lib qoldi.

Asosiy boyligimiz bo`lmish paxta tolasini qayta ishlash, olinadigan iplarni chet davlatga xom - ashyo sifatida sotishdan ko`ra, shu iplardan mamlakatimizda to`quv korxonalarida sifatli ip gazlamalari ishlab chiqarish, paxta tolasiga boshqa tabiiy tolalar aralashtirib olingan iplardan yangi assortimentdagi gazlamalar yaratish imkoniyatlarini izlab topish, mavjud imkoniyatlardan foydalanib, to`qima ishlab chiqarish xajmini kengaytirish, jaxon bozorida «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» yorlig`i ostida raqobatbardosh mahsulotlar bilan savdo qilishga erishish muammolarini hal etish hozirgi kunda mutaxassislarni oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ko`plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o`rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so`zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikasiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta`minlash, faoliyat ko`rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012 – 2016 yillarda hisob-kitoblar bo'yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo'lган 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ham ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Biz ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish uchun katta mablag' sarflaymiz, ko'p miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb etamiz.

Lekin qator tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan, asosiy fondlardan to'liq foydalanishda, mehnat samaradorligini oshirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar mahsulotlar tannarxining asossiz ravishda o'sib ketishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o'tkazishini kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab chiqaruvchilarimizni o'z mahsulotlari taqdimotini o'tkazish va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalg etish bo'yicha alohida Hukumat qarorini qabul qilish lozim.

Mustakillik qo'lga kiritilgandan so`ng, ko`p tarmoqlarga, shuningdek yengil sanoatni to'qimachilik tarmog'i rivojlanishga xam aloxida axamiyat berilmoxda. To`qimachilik sanoatini rivojlantirishni chet-el texnologiyasi va ish tajribalari bilan, ularni o`zlashtirish xamda o`z soxasida, ular asosida yaxshi texnologiyani rivojlantirish ko`zda tutilmoqda. Shu bilan birgalikda mahsulotning sifat darajasini xamda, standartlarning ilmiy-texnik darajasini oshirish, standartlar va texnik shartlarni muntazam yangilab borish, mahsulot sifati va yuqori texnik darajasini kafolatlash lozim.

To`qimachilik sohasidagi ilmiy tadqiqot va tehnologik jarayonlarni loyihalash muassasalarining asosiy diqqati ana shu masalaga qaratilgan.

Bugungi kunda respublikamiz sanoati oldida turgan asosiy vazifalardan biri – ishlab chiqarishni jadal sur'atlari bilan rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va mehnat unumdarligini oshirish hisobiga aholining moddiy va ma'naviy manfaatdorligini o'stirishdan iboratdir. Sanoat korxonalaridagi eski asbob-uskunalarini zamonaviylari bilan almashtirish ham ana shu vazifalarning muhimlaridan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda rivojlangan mamlakatlardagi yetuk firma va kompaniyalar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar bunyod etilyapti. Germaniya, Italiya va boshqa sanoati taraqqiy topgan mamlakatlardagi firmalar kirtgan investitsiyalar asosida ish yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga jahon bozorida talab ortib borayotir. Ilmiy-texnikaning izchil rivojlanishi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishi, mahsulot sifatini yaxshilash iqtisodiy islohotlarning asosiy masalalaridan biri bo'lishi kerak. So'nggi yillarda to'qimachilik sanoatining mahsuloti hisoblangan ip gazlamaga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu talabni qondirish va mahsulot sifatini muntazam yaxshilab borish hamda uning turini ko'paytirish uchun yengil sanoatni jadal sur'atlarda rivojlantirish darkor.

Respublika to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va o'zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihibalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o'rinalini yaratish, korxonalarini texnik va tehnologik yangilash, ilg'or "klaster modeli"ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalarni keltirish maqsadga muvofiq bo`ladi:

1. Klassik mavsum bop to'qimalar xozirgi kunda barchani o'ziga jalg qilishni doimiy xaridorgirligi, bozorda o'z o'rniga egaligi axamyatlidir.

2. To`qima art.1435 “Smolenka” qayta tarash usulida yigirilgan, kalava ipdan polotno o`riliishida to`qilgan gazlama sog`liq uchun foydali, pishiqligi, xam yaxshi va arzonligi bilan qulaydir.

3. Xom to`qimani enini 140sm qilib olindi, xozirgi kunda jaxon bozorida bunday endagi matolarga talab yuqori.

4. Texnologik qismda bajarilgan xisoblar asosida bir metr xom to`qimani og`irligi 0,140 gr. tashkil etdi.

5. To`qimani loyixalashda TAYOTA rusimdagи pnevmatik to`quv dastgoxi olindi to`quv dastgoxini ishchi eni 150sm., bosh valni aylanish soni 500 ayl/min.,

6. TAYOTA to`quv dastgoxini unumidorligi -13,029 m/soat, bir yilda ishlab chiqarilagadigan maxsulot xajmi- 70742,0 mil.metr, 1 metr mahsulotni umumiyl sotish qiymati-7000 ming.so`m.ni tashkil qiladi .

Yuqorida keltirilgan xisob kitoblar va olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki:

TAYOTA rusumli to`quv dastgoxida loyixa uchun olingan 1435 artikuli Smolenka matosini to`qish qulay va samarali

loyihadagi korxonani jixozlari zamonaviy bo`lganligi uchun sifatli mato olish mumkin. Unumidorligi yuqori va ishchilari uchun xam boshqarish qulaydir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Букаев П.Т. «Справочник по хлопковому качеству» М, Легпромбюздат., 1987 г

2. Alimboyev E.SH. «To`qima tuzilish nazariyasи». Т., Aloqachi., 2005 y